



## BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA O‘QITUVCHILARIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTITISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

*Egamberdiyev A.*

*O‘ZFITI Qoraqolpoq filiali mustaqil tadqiqotchisi*

**Tayanch so‘zlar:** didaktika, ta’lim jarayoni, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, usul, baholash, texnologiya, mashg‘ulot, ijod.

**Ключевые слова:** дидактика, учебный процесс, учитель физической культуры, метод, оценивание, технология, обучение, творчество.

**Key words:** didactics, educational process, physical education teacher, method, assessment, technology, teaching, creativity.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantitish jarayonini turli shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi uning kreativligi qay darajada ekanligiga bog‘lik bo‘ladi.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantitish jarayonini mazmunining ijtimoiy mohiyatini va pedagogikaga mansubligini hisobga olib, uni bo‘lajak bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisi faoliyatiga samarali tatbiq etish mumkin.

Talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantitish jarayonini tanlangan mutaxassislik bo‘yicha DTS ni va OTMning boshqa o‘qituvchilar bilan birga ishlashni tahlil qilish davomida modul umumiy pedagogika o‘qitishni tashkil etish shakllari haqidagi tushunchani shakllantiradi. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchisini o‘qitishning turli shakllarining tashkil ettirilishi va o‘zaro bog‘lanishi haqida yaxlit tasavvur beradi kabi fanlar bilan uzviy bog‘langanligi aniqlanadi.

Hozirgi zamon didaktikasida o‘quv materialini mazmunini o‘zlashtirish darajalarini miqdor va sifat tomonida aniqlash, bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining bilish faoliyatini boshqarish tizimini asoslashga umumiy yondashuvlar o‘z takomiliga ega emas. O‘quv materialining o‘zlashtirilish daraja-sini aniqlash va bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining bilish faoliyatlarini boshqarish tizimi darajalarini aniqlashda V.P.Bespalko [1] taklif etgan yondashuv ta’lim amaliyotida qo‘llanishga loyiqdir.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbiy-yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi vositalari bilan eksperimental o'qitish natijalari tadqiqot gipotezasi tasdiqlanganligi haqida xulosa chiqarishga olib keldi. B OTMda Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligishakllanishiga quyidagi psixologik-pedagogik sharoitlarning yaratilishi yordam beradi demakdir:

– o'quv kursini o'rganishda aniq maqsadli yo'nalganlik ( bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisida mashg'ulot, mavzu, bo'lim maqsadini qo'yish, maqsadlarni tabaqalashtirish, aniqlashtirish va integrasiyalash; bosh, asosiy va yordamchi maqsadlarni ajratish; o'quvchilarning faoliyati maqsadini unga mos amaliyotda o'tkazish uquvlarini ishlab chiqish);

– o'quv fanini o'rganishda tizimli mazmuniy ta'minot. U bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisida o'quv materialini tanlash va kompozitsiyalashni amalga oshirish, uni tabaqalashtirish va integrasiyalash, mazmunning didaktik elementlarini, ularning turlari va belgilarini ajratish, mazmunni va uning fragmentlarini o'qitish maqsadlari bilan muvofiqlashtirish, mazmunni modellashtirish, talqin qilish va tizimlantirishni nazarda tutadi;

– o'quv jarayonining moslashuvchan tashkiliy-metodik ta'minoti. U bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisida qo'yilgan maqsadlarga, o'rganilayotgan mazmunga, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos (adekvat) o'qitish metodlari majmuini tanlashni amalga oshirish, tegishli o'quv vaziyati va o'quv topshiriqlarini shakllantirish uquvlarini ta'minlaydi;

– o'quv kursini o'rganishda konstruktiv operatsional-faoliyatli yo'nalganlik. U bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisida uning ijodiy qobiliyatlari, mualliflik niyatlari, refleksiyasini rivojlantirish, o'quv jarayonining vazifaviy strukturasi imkoniyatlari, o'qituvchilar va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining dialogik o'zaro ta'sirini hisobga olib, loyihalash va konstruktiv uquvlarini tarbiyalash uchun sharoitlar yaratadi;

– o'quv fanini o'rganishda motivatsiyali-ahamiyatli yo'nalish. U o'quv fani loyihasini ishlab chiqishga turg'un qiziqish va motivatsiyani rivojlantirish, ishlab chiqilgan loyihalarni OTMning ta'limi jarayonida amaliyotda ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini berish asosida yuzaga keladi.

Tajriba-eksperiment ishi natijalariga tayangan holda, sanab o'tilgan va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishga yordam beradigan bu shartlarning har birining OTMda amalga oshirilishi muhimligini asoslaymiz.

Kursni o'rganishda aniq maqsadli yo'nalganlik bo'lajak mutaxassisda kasbiy kompetentlikni tarbiyalash vazifalariga javob beradi va o'qituvchi tomonidan OTMning ta'lim jarayonida OTM ning yaratilish va amalga oshirilish bosqichida beriladi. Bu quyidagilarni nazarda tutadi:

– dastur materialini o'qitish uchun ilmiy bazani yaratish bilan bog'liq bo'lgan etakchi mavzular, bo'limlar, modullar bo'yicha o'qituvchining keng ilmiy



tayyorlanishi; davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi, o'quv dasturlarini o'rganish; pedagogik va metodik adabiyotni tanlash va tahlil qilish; o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim, uquv va malakalar tizimlarini aniqlash;

– bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining yuqori samarali o'quv kasbiy faoliyatini va o'qituvchining boshqaruv faoliyatini loyihalashtirish.

Mazkur bosqich diagnostik maqsadlarni qo'yish va keyingi darajalarda (modulli, o'quv mashg'uloti) ularni talab etilayotgan mazmunga muvofiq ravishda maksimal aniqlashtirish, xususiy didaktik maqsadlarni kafolatlangan natijalarga erishishga, bo'lajak kasbiy faoliyatning barcha yo'nalishlari bo'yicha etarlicha puxta maxsus bilimlar va amaliy uquvlarga ega bo'lgan kasb ustalarini tayyorlashga yo'nalgan holda ta'riflash bilan bog'liqdir.

Diagnostik berilgan o'qitish maqsadlari OTM o'qituvchisiga bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining tayyorgarlik sifatini aniqlash va aniq baholash imkonini beradi. Istalgan maqsadni diagnostik qo'yish uchun u aniq, tavsiflangan, o'lchanishi mumkin va uni baholash shkalasi mavjud bo'lishi kerak.

Eng avvalo, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari dastur materialining aniq mavzusi, bo'limini o'rganishlari natijasida nimalarni olishlari kerakligini, qanday malaka va uquvlarni egallashlari, olingan bilimlarni kasbiy vaziyatda qacarda va qanday holatlarda qo'llashni o'rganishlari lozim. Jumladan, OTM doirasida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida mashg'ulot, mavzu, bo'lim maqsadini qo'yish, maqsadni tabaqalashtirish, aniqlashtirish va integrasiyalash, bosh, asosiy va yordamchi maqsadlarni ajratish, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyati maqsadini unga mos natijaga amalda o'tkazish uquvlarini shakllantirish ko'zda tutilgan. Bu uquvlarning egallanishi seminarlarni amaliy va laboratoriya ishlarini tashkil etish va o'tkazish jarayonlarida, shuningdek, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari tomonidan o'quv fani loyihasini va o'z amallari refleksiya qilishini yaratish jarayonida ro'y berdi.

Bunda OTM o'qituvchisi bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari tomonidan o'qitish maqsadining qabul qilinishi, o'zlashtirilishi va unga amal qilinishiga yordam berishi kerak. Bunday natijaga erishilishi kasbiy kompetentlikni tarbiyalashning quyidagi psixologik-pedagogik mexanizmlari ta'siri ostida ta'minlanadi: kontekstli, tizimli-faoliyatli yondashuvlarning barqarorlashuvi, to'ldirilishi, transformasiyalanishi, amalga oshirilishi.

Bu o'quv fanini o'rganishda uning tizimli mazmuniy ta'minotini zarurat qilib qo'yadi. O'quv materiali mazmunini tanlash va uni kompozision qurish prosedurasi V.P.Bespalko [2] asarlarida batafsil ko'rib chiqilgan. O'quv materiali mazmunini tanlash va strukturalashda tizimli yondashuvni asos qilib olish maqsadga muvofiqdir. Bu OTM strukturasi juda turg'un bo'lgan yaxlit didaktik tizimni tashkil etishi bilan tushuntiriladi, chunki uning ayrim elementlari orasida bog'lanishlar va aloqalar fanning mantig'i bilan (o'z ifodasini mos ravishda didaktik qayta ishlangan o'quv

fanida topdi), shuningdek, o'quv faniga ham, umuman, OTMga ham qo'yiladigan psixologik-pedagogik talablar bilan aniqlangan.

Mazkur talablarning amalga oshirilishi talaba ishlab chiqadigan va OUYu ta'limining dolzarb muammolarini hal etish vositasi sifatida taqdim etadigan o'quv fani loyihasiga ham to'la taalluqlidir. Mashg'ulotlarda olingan, tegishli uquvlarni tarbiyalash uchun asos yaratadigan, biroq mutaxassisning real kasbiy faoliyatidan ajralib qolgan bilimlar ularni boshqacha sharoitlarga ko'chirishga yordam bermaydi. Ayni choqda, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy amallari strukturasi ochish, ularning tarkibini, integrasiyalash usulini ko'ra bilishga ko'mak bermaydi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini o'qitishning boshlang'ich bosqichida o'qituvchining kontekstli yondashuv doirasidagi faoliyati etakchi bo'ladi. O'qish didaktik jarayonning tomonlaridan biri bo'lib, u bilimlar, o'quvlarni egallash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirish bo'yicha talabaning faoliyatidan iborat. Biroq OTM sharoitlarida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini tayyorlash bo'lajak kasbiy faoliyatning moddiy, ijtimoiy va shaxsiy muhim mahsulot – o'quv fani loyihasida o'zini namoyon etadigan maqsadlari, vazifalari va xarakteri bilan aniqlandi. Shu munosabat bilan o'qish endi bilim, uquv va malakalarni o'zlashtirish usuli bo'libgina qolmaydi. O'quv fanining ijtimoiy muhim va shaxsiy ahamiyatli loyihasini yaratish bilan bog'liq mahsuldor o'quv faoliyati deb qaraladi. Uning ustida ishlash jarayonida faqat ijtimoiy tajriba emas, balki shaxsiy tajriba ham dolzarblashtiriladi, shu sababli oliy o'quv yurtlari sharoitlarida Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini o'qitish rivojlantiruvchi o'qitishga aylanadi.

Shu munosabat bilan o'qituvchi va talaba orasidagi pedagogik o'zaro ta'sirni tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi, u pedagogik ta'sir, uning faol qabul qilinishi bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining javob amallarida, o'zini o'qitish, o'zini rivojlantirishlarida namoyon bo'ladigan shaxsiy faolliklarini ishga tushiradi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan o'zaro ta'sirni tashkil qilishning murakkabligi shundaki, OTM o'qituvchisi talaba bilan faqat o'zaro ta'sirni tashkil etibgina qolmasdan, balki u bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi bilan o'zining shaxsiy o'zaro ta'sirini yaratish uquvini uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni, mualliflik niyatlarini, refleksiya-sini, o'quv jarayoni vazifalari strukturasi imkoniyatlarini, o'qituvchi va o'qituvchilarning o'zaro ta'sir dialogik strukturasi hisobga olgan holda shakllanishini ta'minlashi ham lozim.

Bu esa o'quv kursini o'rganishda konstruktiv o'preasional-faoliyatli yo'nalganlikni ta'riflash zaruratini yuzaga keltiradi. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilariga kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'ladigan bilim, uquv va malakalar mazmunini aniqlash asosida beriladi. Bu birgalikdagi faoliyat doirasida o'qituvchi «fan o'qituvchisi» bo'libgina qolmasdan, balki eng avvalo yaxlit ta'limiy-tarbiyaviy vaziyatning tashkilotchisi sifatida ish ko'radi.



Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining o'quv fani loyihasini ishlab chiqish va keyingi amalga oshirishlari orqali boradigan birgalikdagi faoliyat bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari bilan faqat kommunikativnigina emas, balki eng avvalo fan bo'yicha amaliy o'zaro ta'sirni o'z ichiga oladi. O'qituvchi va talaba o'zaro ta'sirining umumiy xususiyati talabanning o'zlashtirilgan mazmunga ham, o'zaro ta'sirlariga nisbatan ham shaxsiy pozitsiyasini o'zgartirish, qayta qurishdan iborat bo'lib, bu ma'naviy yo'nalishlar ta'lim maqsadlarining, ta'lim jarayoni ishtirokchilari orasidagi o'zaro ta'sirlovchi munosabatlar usullarining o'zgarishida ifodalanadi.

Demak, o'quv fanini o'rganishda motivatsiyali-ahamiyatli yo'nalganlik Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari kasbiy layoqatligini shakllanishiga yordam beradigan navbatdagi muhim shart bo'lib yuzaga chiqadi.

O'quv fani loyihasini ishlab chiqish hamda shu asosda o'qituvchi va talabanning birgalikdagi faoliyatini talabanning motivlari va mayllarini hisobga olib tashkil etilishi bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining fan mazmunini o'rganish jarayonini va shaxsiy kasbiy pozitsiyalarini, pirovard natijada, ularning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik va qobiliyatlarini umumlashtiradi. Bunda kursni o'rganish jarayonidagi muhim narsa o'qituvchining shaxsiyati va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining shaxsiyatlarini orasidagi munosabatlarni o'rnatish, anglash va tahlil qilishdir. O'qituvchi va talaba orasidagi o'zaro ta'sirning kasbiy-shaxsiyatlik aspekti talabanning (bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining) o'zini tutishini va shaxsiyatning ijtimoiy tashkil etilishi amalga oshiriladigan muhim yo'ldir.

Shunday qilib, tajriba-eksperimental yo'l bilan aniqlangan psixologo-pedagogik sharoitlar o'zaro uzviy bog'langan. OTMning ta'lim amaliyotida ularga rioya qilinishi bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisining mazmuni bo'lajak kasbiy faoliyatning maqsadlari, vazifalari, xarakteri bilan aniqlanadigan va u OTM bitiruvchisining mazkur faoliyatini moddiy, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatli mahsulot-o'quv fanini o'qitish texnologiyasi loyihasida o'z ifodasini topadigan nazariy, amaliy va motivatsiyali tayyorligi birligidan iborat bo'lgan, uni amaliyotda qo'llanishi esa OTM mutaxassislarini tayyorlash vazifalarini maqsadga yo'nalgan holda amalga oshirilishini ta'minlaydigan kasbiy layoqatligining shakllanishiga yordam beradi.

Dunyoda ijtimoiy faol, erkin, ijodiy shaxs jamiyat tomonidan tobora ko'proq talabga ega bo'lib bormoqda. Bunday shaxsni shakllantirish va rivojlantirish psixologik-pedagogik nazariya va amaliyotning eng muhim muammolaridan biridir. Shaxsning ijodiy qobiliyatini, ijodkorligini rivojlantirishga hamda ta'lim klasteri muhitida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan tarbiya g'oyasi ta'lim jarayoni zamonaviy yondashuvining asosini tashkil etadi. Ijod va kreativlik muammosi psixolog olimlar tomonidan asrlar mobaynida tadqiqot muammosi



sifatida tadqiq etilmoqda. Ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjudligiga qaramay, aynan ta'lim klasteri muhitida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kreativ kompetentligini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari faoliyati jarayoni mazmunini yanada takomillashtirish davr talabidir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda «uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lim xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, pedagog va mutaxassislarining malaka darajasini yuksaltirish; umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish, biologiya, jismoniy tarbiya kabi talab yuqori bo'lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rgatish; ish beruvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan mutaxassisliklar bo'yicha tayyorlash hamda oliy ta'lim tizimida faoliyatining sifati va samaradorligini oshirish» ustuvor vazifa sifatida belgilandi[3].

Jahonda oliy ta'lim muassasalarida bulajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan ishlar amalga oshirilmoqda, chunki bu jarayon yoshlarning jismonan va ruxan sog'lom shaxs bulib shakllanishida jismoniy tarbiya faniga qiziqishni uyg'otadi, har bir talabani individual qobiliyatlarini aniqlashga imkon beradi, hamda o'z fikrlarini erkin ifoda etish uchun imkon yaratadi. Shu sababli zamonaviy ta'lim odamlarni doimo yangicha fikr yuritishlari, uyda, jamiyatda, mamlakatda duch keladigan muammolarni echimida ijodiy fikrlashga undaydi.

#### Adabiyotlar:

1. Bespalko, V.P. Pedagogika i progressivnie texnologii obucheniya / V.P. Bespalko. - M. : [b.i.], 1995. – 144 s.
2. Bespalko, V.P. Slagaemie pedagogicheskoy texnologii / V.P. Bespalko. - M. : Pedagogika, 1989. - 190 s
3. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari // T.: «G'.G'ulom», –2017.- 70, 71, 72 b.

#### РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari tomonidan turli shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi, uning kreativligi qay darajada ekanligi haqida fikr yuritiladi. Ta'limni tashkil etish mazmunining ijtimoiy mohiyatini va pedagogikaga mansubligini hisobga olib, uni bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchisi faoliyatiga samarali tatbiq etish masalalari o'rganilgan.

#### РЕЗЮМЕ

В данной статье рассматривается эффективная организация профессиональной деятельности в различных формах будущими учителями физической культуры, степень ее творчества. Учитывая социальный характер содержания образовательной организации и его принадлежность к педагогике, изучались вопросы его эффективного применения в деятельности будущего учителя физической культуры.

#### SUMMARY

This article discusses the effective organization of professional activities in various forms by future teachers of physical culture, the degree of its creativity. Taking into account the social nature of the content of the educational organization and its belonging to pedagogy, the issues of its effective application in the activities of the future teacher of physical culture were studied.